

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA USLUBLAR MAZMUNINI FUNKSIONALLIK NUQTAI NAZARIDAN TARKIBLASHTIRILISHI

Karimova Mavluda Hakimovna

Qarshi davlat universiteti, "Fiziologiya" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ijtimoiy tartibga solish funksiyalari maktabda turli xil ta'lim tizimlariga o'tish natijasida yuzaga keladi. O'qitish modellarining yangi yo'llarini faol izlashda ta'lim standartlari barqarorlashtiruvchi va tartibga soluvchi ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Konsentrik, fakultativ, refleksiv, metodik, munozara, funksional, fundamental, ekologiya, biologik, eskiz.

Annotation. Social regulatory functions arise as a result of the transition to different educational systems in the school. Educational standards are of stabilizing and regulatory importance in the active search for new ways of teaching models.

Keywords: Concentric, facultative, reflexive, methodological, discussion, functional, fundamental, ecology, biological, sketch.

Аннотация. Функции социальной регуляции возникают в результате перехода к различным системам обучения в школе. В активном поиске новых путей моделей обучения стандарты образования приобретают стабилизирующее и регулирующее значение.

Ключевые слова: Концентрические, факультативные, рефлексивные, методические, дискуссионные, функциональные, фундаментальные, экологические, биологические, зарисованные.

Ta'lim mazmunini funksionallik nuqtai nazaridan loyihalashtirish va tarkiblashtirishning bir necha uslublari mavjud.

Mazkur uslublar ustida to'xtaladigan bo'lsak, materialni chiziqli taqdim etilishi - birinchi uslub hisoblanadi. O'quv materialini ketma-ket tashkil topgan bo'limlar tuzilgan bo'lsa, ya'ni izchilikda bo'lsa u holda jarayon uzluksiz bo'ladi.

Bir xil masalani bir necha bor turli mavzularda ko'rib chiqilishi mumkin bo'lib, shu bilan birga material chuqurlashtirib o'rgatilsa u holda o'zlashtirish o'zgacha darajada olib borilgan hisoblanadi - ikkinchi uslubdir.

Muammolarni spiralsimon shaklda ifodalanishi - uchinchi uslubga xosdir. Uning yechimiga o'quvchilar doimiy ravishda qaytadi, shu bilan birga turli xil bilim sohalari bilan bog'lanishlar kengayadi.

Har bir aniq mavzu ta'lim mazmunining mutlaqo mustaqil birligi sifatida o'rganilishi - to'rtinchi uslubdir va u modullidir.

Ma'lum bir o'quv predmetining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi ta'lim mazmunini maktab komponentining hajmini belgilaydigan holat - standartdir.

Ijtimoiy tartibga solish funksiyalari maktabda turli xil ta'lim tizimlariga o'tish natijasida yuzaga keladi. O'qitish modellarining yangi yo'llarini faol izlashda ta'lim standartlari barqarorlashtiruvchi va tartibga soluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim standartlari to'liq umumiy ta'lim hajmi va darajasini belgilaydi. Real dasturlar o'z mazmuniga ko'ra standartlardan sezilarli darajada farq qilishi mumkin, ular tarkibiga kiritilgan talabalarni tayyorlashning kengligi va teranligi bilan ajralib turadi, ammo ularning barchasi standartda ko'zda tutilgan darajadan kam bo'lmasligi shart.

Standartlarning joriy etilishi maktab o'quvchilarining ta'lim sifati mezonlarini ishlab chiqishda stixiyalilik va ixtiyoriylikni istisno qilishga, nazoratning obyektivligi hamda axborot mazmunini oshirishga, baholarni birlashtirishga imkon beradi. Ta'lim standartlarini joriy etish har bir o'quvchining ma'lum va oldindan belgilangan darajadagi ta'lim hamda madaniyat darajasiga kafolatlangan yutuqlari masalasini hal qilishga imkon beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabining asosiy o'quv dasturi namunaviy va ishchi o'quv dasturlarini hamda maktabni moliyalashtirish uchun dastlabki hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Namunaviy o'quv rejalari tavsifiy xarakterga ega bo'lib, ular davlat bazaviy o'quv dasturi asosida ishlab chiqiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabining o'quv rejasi asosiy o'quv dasturining meyorlariga muvofiq tuziladi.

Muayyan ta'lim muassasasi manfaatlari o'quv dasturining maktab komponentida o'z aksini topadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabining asosiy o'quv rejasi bir qator meyorlarni o'z ichiga oladi:

- tahsil darajasiga ko'ra mashg'ulotlarning davomiyligi;
- ta'limning har bir bosqichida haftalik o'quv yuklamasi: asosiy, majburiy va fakultativ mashg'ulotlar;
- o'quvchilar uchun maksimal majburiy yuklama, shu jumladan fakultativ mashg'ulotlar uchun ajratilgan akademik soatlarning soni;
- jami haq to'lanadigan yuklama soatlari.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi tayanch o'quv dasturining asosini uning darajalari o'rtasidagi uzluksizlik prinsipini amalga oshirish tashkil etadi.

Tayanch reja dasturlarni, darsliklarni tuzishda yo'llanma bo'lib xizmat qiladi, ammo shu bilan birga u to'liq va sifatli ta'lim berilishini ta'minlashi ham lozim.

Ta'limning yangi mazmuni muqobil o'quv dasturlari va darsliklar bilan belgilanadigan o'zgaruvchanligi, o'quvchining individual qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy faol shaxsni shakllantirishga imkon beradigan turli darajadagi ta'lim darajasi bilan ajralib turadi. Yakuniy bosqich mashg'ulotlarida tabaqalashtirishni amalga oshirish ayniqsa muhimdir.

Ta'lim jarayonining maqsadi va natijasi bo'yicha ma'lum bir ma'lumotli shaxsni, uning vositasi deyilganda - natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan texnologiyalarni tushunamiz.

Ta'lim natijalarining ko'rsatkichlari va mezonlarini izlash ta'limning "meyorlari" tushunchasiga olib keladi, ular quyidagilar bilan ifodalanishi mumkin: hech bo'lmaganda ma'lum miqdordagi bilim olishga imkon beradigan bilim -

ta'lim minimal normasi; tanlangan fan sohasida hech bo'lmaganda zaruriy ahamiyatga ega bilimlar - ta'limning ilg'or darajasi; hech bo'lmaganda shaxsga o'z faoliyatini tahlil va baholashga imkon beruvchi reflektiv bilimlar.

Hozirgi vaqtda biologiya fani ta'limi sohasida quyidagi o'zgarishlar yuz bermoqda:

- maqsadga yo'naltirilganlik va uni rivojlanish funksiyasining ustuvorligini aniqroq belgilashdagi o'zgarishlar;
- ta'limning uch bosqichidagi izchillik - 1-4 sinflar boshlang'ich ta'lim, 5-9 sinflar asosiy, 10-11 sinflar o'rta umumiy ta'lim;
- asosiy bosqichda biologiyaning barcha bo'limlarini o'rganish;
- ta'lim darajasiga qo'yiladigan umumiy talablarni saqlab qolgan holda muqobil o'quv dasturlari va qo'llanmalaridan foydalanish;
- biologiyaning barcha bo'limlari tarkibini ekologiyalashtirish;
- tegishli profil uchun ishlab chiqilgan yangi o'quv-metodik qo'llanmalar asosida yuqori sinflarda tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish;
- biologiyadan ta'lim mazmunining majburiy minimumini maktabning amaliy faoliyatiga kiritish.

O'quv dasturi: tavsiflovchi; ma'naviyat va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; meyoriy yoki tashkiliy-metodik - o'quv materialini tanlash, o'qitish metod va shakllari kabi funksiyalarni bajaradi.

O'quv dasturlari asosiy, ishchi va mualliflik ko'rinishida bo'lishi mumkin. Odatda o'quv dasturlari davlat ta'lim standarti talablari asosida ishlab chiqiladi. Ishchi o'quv rejalari namunaviy dastur asosida ishlab chiqiladi. Mualliflarning o'quv dasturlari tarkibiy tuzilishi o'zgacha mantiqqa amal qilishi, o'z g'oyalari va qarashlarini ifoda etishi mumkin.

Ishchi o'quv dasturi - har bir alohida o'quv mavzusi bo'yicha o'zlashtirish uchun asosiy bilim, ko'nikma va malakalar doirasini belgilaydigan meyoriy hujjatdir.

O'quv materialining mazmunini joylashtirishning konsentrik uslubida, dasturning bir xil bo'limlari o'qitishning turli bosqichlari yoki bir xil fanni o'rganishning turli bosqichlari o'rganiladi. Konsentrik uslubning kamchiliklari - bir xil materialga takroran qaytish tufayli o'rganish sur'atining pasayishidir.

O'quv materialining mazmunini kengaytirishning chiziqli uslubida dasturning bir xil bo'limlariga takroriy qaytish amalga oshmaydi. Materiallar asta-sekin murakkablashishi bilan tizimli va izchil tarzda joylashtiriladi.

Xususan, dastlabki variant - mavzuni chuqur o'rganadigan sinflar uchun "Biologiya" dasturini qarab chiqadigan bo'lsak, dastur biologik, tibbiy profil uchun mo'ljallanishi mumkin. Funktsional yondashuv orqali dasturning barcha bo'limlarida organlar va to'qimalarning tuzilishi hamda funksiyalari atroflicha ko'rib chiqiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida foydalaniladigan dasturlar uchun uch xil variant mavjud:

Umumiy biologiyaning asosiy bo'limlarini o'z ichiga olgan 10-11-sinf "Biologiya" dasturi tomonidan taqdim etilgan bo'lib, u fanlararo aloqalarni, namoyishlarni, ko'nikmalarni va laboratoriya ishlarini o'z ichiga oladi – birinchi variantdir.

10-11-sinflar "Biologiya" dasturi tomonidan taqdim etilib, bu asosiy maktab biologiya dasturining davomi (5-9-sinflar), dastur biologiyaning nazariy va amaliy asoslarini o'rganishni nazarda tutadi – ikkinchi variant.

Biologiyani chuqur o'rganadigan sinflar uchun "Biologiya" dasturi (10-11-sinflar) tomonidan taqdim etilib, unda barcha bo'limlar saqlanib qoladi, ammo ularning barchasi kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan variantda o'rganiladi, laboratoriya ishlari, ko'rgazmali namoyish va ekskursiyalar soni ko'paytiriladi – uchinchi variant hisoblanadi.

Ekologik ta'limning mazmunli asosini ekotizimlar yangi xususiyatlarga ega bo'lgan biotik va abiotik komponentlar to'plami sifatidagi ta'lim tashkil etadi. Atrof-muhitning o'zaro ta'siri - ularning turlari, ko'rinishlari, shakllari fundamental ilmiy fanlar: klassik ekologiya, ijtimoiy ekologiya, global ekologiya, inson ekologiyasi va boshqalarning tadqiqot mavzusiga aylandi.

Texnologik xarita amalga oshishi nazarda tutilayotgan o'quv jarayoni loyihasining pasportidir. Texnologik xaritalar o'quv jarayonining asosiy parametrlarini nihoyatda ixcham tarzda taqdim etishga imkon beradi: maqsadni belgilash, tashhishlash, uy vazifasini aniqlash, loyihaning mantiqiy tuzilishi va tuzatishlar kiritish. U pedagogik natijani rejalashtirish, o'quvchilarning ijtimoiy tajribasidan foydalanish, o'quvchilar uchun mumkin bo'lgan shaxsiy ahamiyatni ajratishni birlashtiradi. Texnologik xaritalar o'quv jarayonini rejalashtirish variantlaridan biridir.

Texnologik xaritada turli darajadagi vazifalar ko'rinishidagi o'tmishdagi bilim tajribasiga qarab ko'p darajali o'qitish imkoniyati mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, dars davomida ba'zi o'quvchilar bitta preparatni ko'rib chiqishlari, eskizlarini tasvirlashlari va ta'riflashlari mumkin, boshqalari bir vaqtning o'zida ikkita preparatni ko'rib chiqishga muvaffaq bo'lishadi, shu bilan birga barcha farqlarni aniqlashadi.

Texnologik xaritalarga asoslanib, shaxsga yo'naltirilgan ta'limga hissa qo'shadigan, qiziqish, bilish qobiliyatlari, tadqiqotchilik qobiliyatlarini, munozaralar paytida muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan modulli darslar ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, ta'lim oluvchilar funksional yondashuv orqali dastur, darslik va o'quv qo'llanmalarni tanlab olishlari mumkin. Shu sababli talabalarga bilim berish, o'qitiladigan kursning metodik ta'minotini tanlash va undan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Yosh o'qituvchilar faoliyatini tahlili shuni ko'rsatadiki, ular asosan namunaga ko'ra maktablardagi mavjud darsliklar bilan ishlashadi. Shuning uchun hozirgi paytda funksional yondashuv asosida bo'lajak biologiya o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish zarurati tug'ilmoqda.

Adabiyotlar

1. Беспалько В.П., Татур Ю.Г. Системно – методическое обеспечение учебно воспитательного процесса подготовки специалистов. – М.: Высшая школа, 1989. – С.192.
2. Karimova M.H. Biologiya fani o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirishning o'ziga xos aspektlari. Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio'. №5. 2020.
3. Краевский В.В., Лернер И.Я. Теоретические основы содержания общего среднего образования. – М.: Педагогика, 1983, – С.352.
4. Верзилин Н.М., Корсунская В.М. Общая методика преподавания биологии. Учебник для студентов пед. инст. по биологии. М.: Просвещение, 1983,-384 с.
5. Karimova M. H. "O'qituvchining metodik tayyorgarligi tizimida tarkibiy komponentlar kombinatsiyasining o'rni." Xalq ta'limi. №6. 2021, -35 b.
6. Karimova M. H. "The Structural model of methodological training of teacher in teaching biological sciences." - ACADEMICIA. An international Multidisciplinary Research Journal. 2021,-365 page
7. Karimova M. H."Oliy ta'lim muassasida bo'lajak biologiya o'qituvchisining tayyorgarligi amalga oshirish yullari." Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. Qarshi 2022 yil. 17-18 may. 657-661 bet.
8. Karimova Mavluda Hakimovna "BIOLOGIYA O'QITUVCHISI METODIK TAYYORGARLIGINING TUZILMAVIY-FUNKSIONAL MODEL" ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ. -UDK: 378.14: 372.857, 2022-yil.
9. Karimova Mavluda Hakimovna "A Complex of Tools for Teaching Biology in Various General Educational Institutions." Eurasian Scientific Herald September. 2022. 77-81 page.
10. Karimova Mavluda Hakimovna "METHODICAL TRAINING OF BIOLOGY TEACHERS IN THE STRUCTURE OF CONTINUOUS EDUCATION" International Multidisciplinary Conference on Scientific Developments and Innovations in Education. - 3, 2022-yil. www.conferencepublication.com
11. Karimova Mavluda Hakimovna " DIDACTIC FOUNDATIONS OF COMPUTER EDUCATION IN THE TRAINING OF BIOLOGY TEACHERS " DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE International scientific-online conference (30.11.2022).
12. Karimova Mavluda Hakimovna UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISH UCHUN TA'LIM VOSITALARI MAJMUASI. Ta'lim, fan va innovatsiya 2-son, 2023-yil.
13. Karimova Mavluda Hakimovna BIOLOGIYA FANI O'QITUVCHISI METODIK TAYYORGARLIGINI AMALGA OSHIRISHNING TAKOMILLASHTIRILGAN MODEL"Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM texnologiyasini qo'llash: xalqaro tajribalar, rivojlanish strategiyalari, intensiv usul va vositalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

QASHQADARYO VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI 2023-yil 26-aprel.

14. Ergashev, N. (2022). Raqamli ta'lim sharoitida bulutli texnologiyalar yordamida o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga ko'p bosqichli tayyorlashning nazariy aspektlari.
15. Ergashev, N. (2023). Ergashev Nuriddin G'ayratovich OLIY TA'LIM TEXNIKA IXTISOSLIKLARIDA RAQAMLI TA'LIM ASOSIDA BO'LAJAK MUXANDIS KADRLARNI TAYYORLASH MUAMMOSI: OLIY TA'LIM TEXNIKA IXTISOSLIKLARIDA RAQAMLI TA'LIM ASOSIDA BO'LAJAK MUXANDIS KADRLARNI TAYYORLASH MUAMMOSI. *E-Library Karshi EEI*, 1(01). Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/el/article/view/319>
16. Ergashev, N. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНИКА ИХТИСОСЛИКЛАРИ ЎҚУВ МАТЕРИАЛЛАРИНИ ДАСТУРИЙ ВИЗУАЛЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ.
17. Ergashev, N. (2022). Texnika ixtisosliklari mutaxassislik masalalarini yechishda C++ visual dasturlash tilida klasslardan foydalanish tahlili.
18. Ergashev, N. (2022). Bulutli texnologiyalarda mavjud tahdidlar, ularga qarshi kurashish mexanizmlari va metodlari.
19. G'ayratovich, E. N. (2022). The Theory of the Use of Cloud Technologies in the Implementation of Hierarchical Preparation of Engineers. *Eurasian Research Bulletin*, 7, 18-21.